

**INNOVATION TEXNOLOGIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO‘LAJAK
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI
RIVOJLANTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH**

G‘iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi

QDU o‘qituvchi

giyosiddinovamahmuda@gmail.com

+998912013395

Hozirgi kunda bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, o‘z ustida izchil ishlashi va kasbiy jihatdan doimiy takomillashuvini ta‘minlovchi innovatsion o‘qitish metodlarining joriy etilishi muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega. Mazkur yo‘nalishdagi yondashuv O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-sonli farmonida belgilangan vazifalar, ya‘ni oliy ta‘lim tizimida zamonaviy bilimlar va innovatsion yondashuvlar asosida pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, kreativ va tanqidiy fikrlovchi yosh mutaxassislarni tayyorlash talablariga hamohangdir.

Ushbu vazifalarning ijrosi nuqtai nazaridan, bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni hamda ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish ilmiy asoslangan modellashtirishga ehtiyoj tug‘diradi. Talabalarni ijodiy fikrlovchi, tashabbuskor va mustaqil qaror qabul qila oladigan pedagog shaxs sifatida tarbiyalash, ularning kasbiy kompetensiyasini chuqurlashtirish, aynan Prezident farmonida qayd etilganidek, ta‘lim sifatini oshirish va ijtimoiy soha uchun zamonaviy mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ustuvor maqsadlar doirasiga kiradi.

Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining pedagogik kompetensiyasi tarkibida kreativ fikrlash salohiyatining tutgan o‘rnini aniqlash asosida biz ushbu yo‘nalishda innovatsion yondashuvlar asosida tuzilgan prognozli modelni ishlab chiqdik. Model ishlab chiqishda nazariy manbalarni tizimli tahlil qilish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, shuningdek, amaliy so‘rovnomalar va kuzatuv metodlari orqali olingan empirik ma‘lumotlarga tayandik. Bu esa ta‘lim jarayonini amaliy, kreativ va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish orqali innovatsion taraqqiyotga hissa qo‘shishni maqsad qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirishda ularning kasbiy modeli asosida tayyorlash dolzarb metodologik muammolardan biridir. Bu borada ilg‘or pedagogik tafakkur egalari bo‘lgan O.A. Abdullina, V.A. Slastyonin, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, Yu.K. Babanskiy, Sh.A. Amonashvili kabi olimlarning ilmiy ishlanmalariga tayanish zarur.

Masalan, N.V. Kuzmina tomonidan taklif etilgan o'qituvchi modeli ilmiy, kommunikativ, konstruktiv, tashkiliy va tashabbuskorlik kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Bu modelni innovatsion texnologik topshiriqlar asosida o'quv jarayoniga integratsiyalash orqali talabalarda aynan kreativ fikrlashga asoslangan kasbiy refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-sonli Farmoni / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 5110900 – *Pedagogika va psixologiya* bakalavriat ta'lim yo'nalishining Malaka talablari. – T.: 2020. – 7-8- b.
3. Абдуллаева С. А. Теоретические подходы к изучению дивергентного мышления будущих психологов/-Известия ДГПУ, №4, 2015. С. 21-24.
4. Абдуллина, О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования / О.А. Абдуллина. — М.: Просвещение, 1990.
5. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – 208 бет.
6. Абулханова-Славская, К.А. Стратегия жизни/К.А. Абулханова- Славская. — М.: Мысл, 1991.-49 с;
7. Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoni tarjimasi-Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1902.